

## O'QITUVCHILAR ZAMONAVIY PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

**Ermonov Sherzod Ibrayim o'g'li**

*Guliston davlat pedagogika instituti Aniq va  
tabbiy fanlar kafedrasи stajor-o'qituvchisi*

**Xakimova Farangis Abdualimovna**

*Guliston davlat pedagogika instituti Aniq va  
tabbiy fanlar kafedrasи stajor-o'qituvchisi*

**Anotatsiya:** *Maqolada o'qituvchilar zamonaviy pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha ishlar olib borildi. Shuningdek o'quvchilarni bilimini yanada rivojlantirishga yordam beradigan zamonaviy pedagogik dasturiy vostalar, jumladan Hahoot! platformasidan foydalanish haqida ma'lumotlar berildi.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'lim, Pedagogik dasturiy vostalar, Hahoot! platformasi, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT).*

Xozirgi rivojlanayotgan davrda har bir sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) joriy etilib, kasbiy faoliyatimiz samaradorligini oshirmoqda. Bugungi kundalik hayotimizni nafaqat televizor, radio, balki mobil telefonlari, kompyuter, planshet kabi zamonaviy qurilmalarsiz o'tkaza olmay qoldik, ulardan foydalanib, turmushimiz mazmunini boyitamiz, ish va ta'lim olishdagi vazifalarimizni yengillashtiramiz. Hozirgi davrda barcha boshqa sohalar qatorida ta'lim tizimida ham turli fanlarni o'qitishda AKT imkoniyatlarini joriy etish dolzarb masala hisoblanadi. AKT nafaqat talabalarda bilim va malakalarini shakllantirishga, balki ularning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, bilishga oid qiziqishlarini oshirishga ham xizmat qiladi. Keyingi davrlarda ko'plab psixologik va ilg'or pedagogik sohalarda chop etilayotgan maqolalarda, AKT talabalarlarning bilimi, ijodiy tafakkurini rivojlantirishi haqidagi fikrlar ta'kidlanayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. AKT imkoniyatlaridan foydalanish ta'lim jarayonida beriladigan axborotlar doirasini boyitish va talabalar tomonidan qiziqish bilan o'zlashtirilishiga yordam beradi. Ta'lim jarayoniga AKTning joriy etilishi bilan zamonaviy axborot muhitiga xos bo'lgan ta'limga yangicha yondashuv shakllana boshladi.

Pedagogik ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish masofaviy o'quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoaga pedagoglar, kompyuter dasturchilar, tegishli mutaxassislarining birlashuvini, pedagoglar o'rtaida vazifalarning taqsimlanishini, ta'lim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini monitoring etishni taqozo etadi. Pedagogik dasturiy vositalar (PDV) – kompyuter texnologiyalari yordamida o'quv jarayonini qisman yoki to'liq avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan didaktik

vosita hisoblanadi. Ular ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o'qitish vositasi sifatida ishlataladi. Pedagogik dasturiy 15 vositalar tarkibiga: o'quv fani bo'yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta'minot, qo'shimcha va yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- o'rgatuvchi dasturlar – talabalarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltiradi;
- test dasturlari – egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo'llaniladi;
- mashq qildirgichlar - avval o'zlashtirilgan o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;
- o'qituvchi ishtirokidagi virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

"Pedagogik dasturiy ta'minot" konsepsiysi boshqacha talqin etiladi, ammo ko'pchilik olimlarning fikrlari o'xshashdir. Misol uchun, Kuxtin D.V "Pedagogik dasturiy ta'minot ta'lim tizimini o'rganish jarayonida foydalanish 16 uchun mo'ljallangan alohida dastur va dasturiy paket hisoblanadi" deb ta'riflaydi.<sup>19</sup>


O'quvchilarni egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida test dasturlaridan foydalanish samarali usul hisoblanadi. Usbu usuldan foydalanishda "Estafeta" metodidan foylananish o'quvchilarni egallagan bilimini mustahkamlashda yordam beradi. "Estafeta" metodini aksariyat hollarda nazariy darslarda, qatorlararo musobaqalarda qo'llash mumkin. Bu metodda gurux a'zolarida birdamlik, o'zaro yordam kabi xislatlar shakllanadi. Bu metod o'quvchilarni tez va aniq harakat qilishga undaydi.

Bugungi kunda test tuzuvchi zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar mavjud bo'lim, bulardan biri Kahoot! platformasini ancha qulay va qiziqarliligi bilan ajralib turadi. Kahoot! platformasida qilingan testlar o'quvchilarni aniq va tez javob berishga undaydi. Savollarga qanchalik tez va aniq javob bergen o'quvchilarga shuncha ko'p bal beradi. Natijalarni har bir savolda ko'rib borish o'quvchilarni yanada qiziqtiradi hamda tez va aniq javob berishga undaydi. Kahoot! har kuni dunyo bo'ylab millionlab odamlar tomonidan o'quv o'yinlarini kashf qilish, yaratish, o'ynash va almashish uchun foydalaniladigan o'yinga asoslangan o'quv platformasi. Bu talabalar va o'quvchilar uchun mo'ljallangan. Maktabda, Kahoot! har qanday mavzu, har qanday yoshdagi va har qanday qurilma bilan ishlatalishi mumkin – o'quvchilar hatto hisob qaydnomasi uchun ro'yxatdan o'tishlari shart emas. Sinfda dars mashg'ulotida, ochiq darslarda, masofaviy ta'limda foydalanish mumkun.

Kahoot! plarformasidan ro'yhatdan o'tish uchun <https://create.kahoot.it/> manziliga o'tib o'qituvchi sifatida ro'yxatdan o'tishingiz kerak. E'tibor bering, o'quvchilarga kahoot platformasidan foydalanish uchun hisoblar kerak emas.

<sup>19</sup> Кухтин, Д. В. Электронное обучение. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: [http://hotline.ua/knigi/author/kuhtin\\_pv-232467/](http://hotline.ua/knigi/author/kuhtin_pv-232467/)

O'quvchilar kahoot platformasidan foydalanish uchun <https://kahoot.it/> manziliga kirishi zarur.



Ro'yhatdan o'tish quyidagi tartibda olib boriladi:

1. <https://create.kahoot.it> saytiga o'tiladi va "Ro'yxatdan o'tish" tugmasini bosing;
2. Hisob turi sifatida "O'qituvchi"ni tanlang ;
3. Maktabda ishlaysizmi yoki yo'qligini belgilang;
4. Agar siz elektron pochta orqali ro'yxatdan o'tmoqchi bo'lsangiz, elektron pochta manzilingizni va foydalanmoqchi bo'lgan xavfsiz parolni kriting. Shu bilan bir qatorda, mavjud Google, Microsoft yoki Apple hisob qaydnomalarining bilan ro'yxatdan o'tishingiz va Kahoot'ga kirish uchun ushbu hisob ma'lumotlaridan foydalanishingiz mumkin;
5. Rejani tanlang: Kahoot-dan foydalanishda bepul yoki yangilang qo'shimcha funktsiyalarni ochish bo'yicha premium rejalaridan birini tanlashingiz mumkun;
6. Xush kelibsiz degan ma'lumot chiqadi hamda o'zingizga moslab sozlamalarni amalga oshirishingiz mumkun;
7. Siz ro'yxatdan o'tganingizdan keyin Kahootdan foydalanish bo'yicha ba'zi maslahatlar elektron pochtaga xabar keladi.

Bugungi ta'lif tizimi eski mazmundagi o'quv dasturlaridan vos kechib, innovatsion raqamli iqtisodiyot va axborotli jamiyat uchun kadrlar tayyorlash imkonini beradigan o'qitish tizimiga o'tmoqda. Shunga mos ravishda, ta'lif berishga yondashuvlar ham o'zgarib, internet va axborot texnologiyalari imkoniyatlari sababli o'qituvchilar oddiy bilim beruvchidan, asosiy tashkilotchiga aylanmoqda.

Ayrim o'qituvchilar uchun bunday o'zgarish oson kechmaydi. Bunday davrda raqobatbardoshlik, hamkorlik munosabatlarini o'rnata olish qobiliyati zarur bo'lganligi sababli, o'quv dasturlari mazmuni tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, ijodiy yaratuvchanlik va hamkorlik ko'nikmalarini, ya'ni kompitensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

**ADABYOTLAR:**

1. Aripov A.N, Mirzaxidov X.M, Shermatov Sh.X va bosh. Axborot kammunikatsiya texnalogiyalari izohli log'ati. “Raqamli Rivojlanish Tashabbusi” , O'zbekiston Respublikasi, Toshkent,2008
2. Sh.X.Pozilova “Pedagogik dasturiy vositalar” fanidan ma'ruza mashg'ulotlari bo'yicha o'quv qo'llanma. – Toshkent: Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU. 2019. - 161 b.
3. M. Aripov, A. Xaydarov. «Informatika asoslari».— Toshkent. «O'qituvchi» 2002-yil. 429 b
4. A. A. Abduqodirov, A. X. Pardayev. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. — T.: Fan, 2009.
5. U. Sh. Begimqulov. Oliy ta'lim muassasalarining yagona axborot makonini tashkil etish va uni rivojlantrish istiqbollari //«Xalq ta'limi» jur. №4, 2006 — 4-7 betlar

**INTERNET SAYTLAR**

1. <https://unilibrary.uz>
2. <https://ziyonet.uz>
3. <https://ru.wikipedia.org>